

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA HIKMATLAR TALQINI (ARASTU VA ISKANDAR OBRAZLARI MISOLIDA)

Shodiya Otanazarova

Urganch davlat universiteti,

O‘zbek filologiyasi fakulteti,

3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Iskandarning Arastudan: “Maqsadga qaysi manzil yaqinroq?” – deb so‘ragani va u manzilga qaysi yo‘l bilan boorish ma‘qul ekanligi, shuningdek, fidoyilik ko‘rsatish yo‘li bilan nom qoldirish mumkinligi haqidagi Arastuning javobi.*

Kalit so‘zlar: *Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Arastu, “Xamsa”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Tarixi anbiyo va hukamo”.*

KIRISH

Alisher Navoiy asarlarida yunon faylasuflarining o‘ziga xos o‘rni va talqini mavjud. Bu talqinlar o‘zining protatipiga – asliyatiga g‘aroyib tarzida o‘xshaydiki, biz bu obrazlarning talqinlarini o‘rganish orqali Navoiy dahosining yana bir qirrasini – uni yunon falsafasi va faylasuflaridan atroflicha xabardorligini bilib olamiz. Ulug‘ shoir ijodida yunon faylasuflaridan Aflotun, Arastu, Suqrot va Farfinyus (Faysog‘urs)lar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu faylasuflardan eng faol ishtirok etadigani va ahamiyatlisi Arastu hakim obrazidir. Arastu hakim yunon faylasufi Platonning shogirdi bo‘lgan Arestotelning sharqona nomi. U 384-yilda Egey dengizi bo‘yidagi Stagir shahrida tug‘ilgan (shu tufayli ba‘zan uni Arastu Straniriy deyiladi). Arastu 367-yilda Afinada mashhur Aflotun akademiyasiga o‘qishga kirdi va u yerda 12 yil shogirdlikni o‘tadi, so‘ng shu akademiyada o‘qituvchilik qila boshladi. Arastu yoshligidan Makedoniya shohining o‘g‘li Filip II bilan o‘ртоq edi. Filipp II taxtga chiqqach, 340-yil Arastu Makedoniya poyxati Pellaga taklaf etilib, uning o‘g‘li 13 yoshli Aleksandrga murabbiy etib tayinlandi. Arastu shogirdini Homerning “Iliada” dostonida kuylangan qahramonliklar ruhida tarbiyalay boshladi. Keyinchalik Aleksandr “Men Arastuni otam qatori hurmatlayman, chunki otam menga hayot berdi, Arastu hayot qadriyatlarini berdi”, degan ekan (Uning bu so‘zi Sharqda ham mashhur bo‘lib, bir qancha variantlarda talqin etiladi. Z.M.) 339-yil Aleksandr taxtga o‘tirgach, Arastu ona shahri Stagirga qaytadi. Filipp II vaqtidagi urushlarda vayron etilgan bu shaharni Aleksandr ustozining hurmati uchun qayta tiklab beradi. Arastu obrazi Firdavsiyning “Shohnoma”sidayoq Iskandarning ustozisi sifatida qayd etiladi. Nizomiy Ganjaviy “Iskandarnoma” va Xisrav Dehlaviyning “Oinai Iskandariy”sida Iskandarning asosiy ustozisi, nadimu mulozimi sifatida gavdalanadi, dengiz sayyohatida ham u bilan birga bo‘ladi. Jomiyning “Xiradnomai Iskandar”ida ham u shu vazifani bajaradi. “Saddi Iskandariy”dagi asosiy donishmand va Iskandarning ustozisi bo‘lgan bu faylasuf Iskandar taxtga chiqqanidan to umrining oxirigacha uning nasihatlariga amal qiladi. Uning nasihatlari jahongir fotihni ulug‘ donishmand bo‘lib

yetishuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unga jahonni ko'rsatuvchi oyinani yasab berishda Buqrot bilan yuz nafar olimga rahbarlik qiladi. Nizomiy Ganjaviyning Iskandar Zulqarnaynga bag'ishlangan "Iskandarnoma" dostoni ikki bo'limdan: "Iqbolnoma" va "Sharafnoma"dan tashkil topgan. Dostonning ikkinchi bo'limi "Sharafnoma" jahongir-fotihning donishmandlar bilan bo'lgan suhbatlaridan tarkib topgan. Unda Arastu obrazi donishmandlikni mujassamlashtirgan asosiy timsol vazifasida talqin etilgan. Misrlik Maryam ismli malika Shom (Suriya) podshohi bo'lib turganda, qudratli Habashiston davlati qo'shinlari hujumidan og'ir ahvolda qoladi. Maryam o'z davlatini himoya qilish uchun jahongir-fotih Iskandar Zulqarnaynga yordam so'rab, murojaat etadi. Iskandar Maryam Misriyning so'zlarini tinglab, maslahat uchun ustoz Arastuning qoshiga yuboradi. Malikaga harbiy yordam berishdan avval Arastu unga ilmi hikmatga oid juda ko'p bilimlarni o'rgatadi. Nizomiy dostonida yozilishicha, Arastu hakimning Iskandar huzuridagi martabasi shu qadar yuksak ekanki, podshoh va malikalar Arastu qo'l yuvayotganda, ko'za ko'tarib suv quyib turishni orzu qilar ekanlar. Xususan, malika Maryam ham shu sharaflil xizmatga muyassar bo'ldi. Arastu malikaga o'z davlatining qudratini oshirish uchun qo'shinlariga va xalqqa g'amxo'rlik qilish zarurligini uqtiradi. Buning uchun Arastu boylik, siymu zar kerakligini aytib, Maryamga misni oltin qilish haqidagi hunar – "Al-kimyo"ni o'rgatadi. Malika bu ilmlarni va adolatli davlat boshqaruvini o'rganib, mamlakatini kuchli davlatlar qatoriga kiritishga erishadi. Jomiyning "Iskandarnoma"si haqida f.f.n. D. Yusupova "Xiradnomai Iskandariy" ("Iskandarning donishmandligi") dostonida esa Iskandar qiyofasida tasavvufga kirgan va shu asosida hayotini qurgan solik timsoli yaratilgan", deb fikr bildiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Arastudan Iskandar:

Ey, tafakkuring bilan osmonu falakni ham lol qoldirgan donishmand
Maqsadning

Manziliga qaysi yo'l bilan boorish yaxshi-yu va qaysi ishning natijasi maqtovgaga loyiq? – deb so'radi.

Arastu:

-Xalqdan o'zni yiroq tutib, fano yo'lida hoki-turobga aylangan afzal, -dedi.

Agar odamning davlati ko'p bo'lsa, xayr-u saxovat qilish imkoniyati ham ko'p bo'ldi. Maqsadga yetishda qilingan ishning ahamiyati katta bo'lganligi sababli badavlatga ko'proq e'tibor berilardi. Kimki savob ishlarni ko'proq qilgan bo'lsa, uning visoliga yetish imkoni ko'proq bo'ldi.

Arastu yana aytdi:

Mol va davlat egalari xayr-ehson qilsalar, bu ishdan ikki holat yiroq emas. Birinchisi shu o'rinli bo'lganmi-yo'qmi? Ba'zi odamlar o'rinsiz ishlarni ham qiladilar. Agar qilingan ish o'rinsiz bo'lsa, kishi qancha ehson qilgani bilan foydasizdir. Va agar qilgan ishi o'rinli bo'lsa, nima xayr qilgan bo'lsa ham, maqbul deb hisoblasak bo'ldi. Kimki me'yorni bilmasa, hamma qilgan ishi yo'qqa chiqadi. Birov shoh huzuriga otlangan bo'lsa, u avvalo, o'z yo'lidan chiqqan qaroqchilardan ehtiyot

choralarini ko'rish shart. Qaroqchilar bilan ulfat bo'lgan shaxs qachon shox bazmida o'tirishga loyiq bo'ladi? Lekin kimki bor-yo'g'ini Xudo yo'lga berib, Xudodan boshqa hech qanday vujud borligiga gumon qilmasa, shu maqsad yo'lida o'zini fido qilsagina, qilgan ishi dunyoda boqiy bo'ladi. Insonga bundan ulug' martaba bo'lishi mumkin emas, kishi martabaga erishdimi, demak uning nomi abadiy qoladi.

Gavharfurush Arastu bu durlarni shu tarzda sochgan ekan, savol beruvchi sadaf og'zidek xomush bo'ldi-yu qoldi.

Umuman olganda, Jomiy "Iskandarnoma"sida ham Arastu ahamiyatli timsollardan sanaladi. "Saddi Iskandariy"ga qaytadigan bo'lsak, yunonlarning yetti faylasufi bilan Navoiyning yetti donishmandi orasida faqat Suqrot va Pifagor bir-biriga to'g'ri keladi. Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ning zamondoshligiga qaraydigan bo'lsak, bu sanoq yana qisqaradi, ya'ni faqat Arastu va Diogengina uning zamondoshi bo'lganlar. Shundan ma'lum bo'ladiki, Navoiy xronatop masalasida e'tibor bermagan. Ya'ni o'z Iskandari yoniga o'z davrida ma'lum va mashhur bo'lgan yunon donishmandlarini kiritgan. Ushbu asarda barcha yunon faylasuflari islom mafkurasi asosida tasvirlanadi. Ular faqat Iskandarning onasi Bonuga ta'ziya bildirib, nasihat qilayotganlarida va doston so'nggida keltirilgan xiradnomalarda mustaqil ravishda ishtirok etadilar. Boshqa lavhalarda asosiy rolni Arastu, keyin Suqrot, qisman Aflotun bajaradi. Ma'lumki, Sharq va G'arbda Arastuni "sohibi mantiq", "mantiq otasi" deb ulug'lashgan. Shuning uchun ham Navoiy Arastuni Iskandarga u yer yuzidagi yetti iqlimni zabt etishida bosh murabbiy etib tayinlaydi. "Saddi Iskandariy"ga Arastu XVIII bobidan kirib keladi. Doston davomida Iskandar Arastuga axloqiy muammolar xususida turli xil savollar beradi. Bu savol-javoblar dostonida "Hikmat" nomi bilan ataladi. Hikmatlar doston voqealari bilan bog'liq bo'lgani holda irfoniy, axloqiy-ta'limiy va kundalik-maishiy mavzulardadir. Irfoniy mavzulardagi hikmatlar nisbatan kam bo'lib, quyidagilardir: Birinchi hikmatda Iskandar ustozidan maqsadga qanday yetish mumkinligi to'g'risida so'raydi. Arastu unga bu yo'lida uch xil tariq (yo'l) borligini aytib, avvalo, fano yo'lida xoku turobga aylangan ma'qul, deb maslahat beradi. Bu Navoiyning orifona yo'lga (tariqatga) munosabati bo'lib, Iskandar taxtdan voz kechganligi voqeasidan keyin beriladi. Arastuning manzilga olib boruvchi ikkinchi yo'l hayru ehsondir deydi. Zero bu yo'lida ham me'yor va o'rin kerakligi haqida so'z boradi. To'rtinchi hikmatda Tangri taqdiri va unga bandaning tadbiri haqida savol-javob bo'ladi. Arastu Tangri taqdirini mutlaq ekanligini e'tirof etib, bandasi har qancha harakat qilmasin, taqdiri azalga qarshi hech qanday tadbir qilolmasligini aytadi. Bu javob taqdir masalasiga ayni paytda Navoiyning munosabatini aks ettiradi. Sakkizinchi hikmatda yaxshilik va yomonlikning ajru mukofoti to'g'risida so'z boradi. Arastu har bir yaxshi va yomon ishning muayyan natijasi borligi haqida so'zlaydi. Yaxshilik ham, yomonlik ham insonning o'z amali natijasi ekanligini aytsa-da, "kishilarning fe'l-atvori yaratilganda, uning ichiga tabiiy ahvolining urug'i ham yashiringan", deydi. bu ham Navoiyning qismat ilohiy va o'zgarmas ekanligi haqidagi fikriga hamohangdir. O'n ikkinchi hikmatda inson va uni o'zining anglashi borasida so'z boradi. Iskandar ustoziga

“inson zotida ilohiyot siri yashiringan bo’lsa-da, o’zidagi bu sirdan bexabarlarining hayvondan qanday farqi bor? – deb savol beradi. Savol mohiyati insonning ulug’ligi va bu ulug’likdan o’zining johilona bilimsizligi borasidagi tasavvufona qarashning Navoiyona talqini edi. Arastu javob beradi: Dedi: «Ulcha bordur o’zida nihon, Bilurdin fuzunroqdur ahli jahon. [Alisher Navoiy, 2000: 443]. Ya’ni odamzod mana shu johilligicha ham bilganlardan (balki farishta va maloyikalardandir) ham afzalroqdir. Bu javob ham Navoiyning fikri bo’lib, ulug’ mutafakkirning insonni ulug’laydigan gumanistik dunyoqarashini aks ettirishi bilan ahamiyatli. Dostondagi axloqiy-ta’limiy mavzudagi hikmatlar beshtani tashkil etib, bu adolatli hukmdor bo’lish uchun zarur bo’lgan maslahatlardan iboratdir. Ikkinchi hikmatda Iskandar ustoziga adolat bilan ish yuritish yo’l-yo’riqlari haqida surishtiradi. Arastu unga javoban aytgan so’zida saltanatning ham ma’naviy, ham moddiy ustunlari adolatdan bino bo’lishini aytib, uni bir qancha dalillar bilan isbotlaydi. Uchinchi hikmatdagi munozara Iskandarning Doro bilan muxolafatining boshlanishi sababli bo’lib o’tadi. Unda noahillik, urush-janjalning sababi va uni bartaraf etish sabablari haqida savol-javob bo’ladi. To’qqizinchi hikmatda rost so’z va to’g’ri fikr borasida so’z yuritiladi. Savolga javob bergan Arastu “insonlarning har biri Yaratganning sifatlaridan bir ko’rinishdir”, deydi va har qanday pokrav (yo’li pokiza) inson ham xato qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. O’ninchi hikmat Xitoy xoqonining Iskandarga ziyofat berishi munosabati bilan uyushtirilgan bo’lib, u ziyofatdagi me’yor va isrofgarchilikning zarari xususida bo’ladi. Arastu shoh xalqning pastki tabaqasiga in’om va ehson qilgan shohning martabasi biland bo’lishi haqida Iskandarga nasihat qiladi. Hikmatlarda eng ko’p qo’llanilgan masala kundalik-maishiy mavzudagi masalalar bo’lib, ular oltita hikmatda o’z aksini topgan. Beshinchi hikmatda qishning qahri va hikmati to’g’risida so’z yuritiladi. Unda Arastu shogirdi Iskandarga kishi mijozini tabiatga bog’lagan holda qish faslining foydali tomonlari haqida tushuntirish beradi. Oltinchi hikmatda jahongir yana safar tadorigini ko’ra boshlaydi va safarning foyda va hikmati to’g’risida ustozining fikri bilan qiziqadi. Arastu safardan inson salomatligi va ruhiyatiga yaxshi ta’sir etishi haqida so’zlab beradi. Yettinchi hikmatda qarilik va yigitlik borasida mulohaza yuritiladi. Arastu yigitlikni kuch-quvvatning avjga chiqqan vaqti, unda poklik ravishi bo’lgan kishi qariganda obro’-e’tibordan qolmaydi, deb munosabat bildiradi. O’n birinchi hikmatda so’z bahor fasli va uning inson tabiatiga ko’rsatadigan ta’siri haqida bo’ladi.

XULOSA

Arastu shogirdiga bergan javobida to’rt faslning inson tabiati bilan bog’liqligi, xususan bahor faslida kishi ruhi parvarish topishi va shuning uchun bahor kelishi bilan beixtiyor o’ziga tortishi haqida so’zlaydi O’n uchinchi hikmatda yolg’izlik va vaslu hijron to’g’risida savol-javob bo’ladi. Iskandarning “yolg’izlikda inon-ixtiyor erkinligi bo’lsa ham, kishilar nima uchun hijrondan visolni afzal ko’rishadi?” degan savoliga Arastu ishq mavzusiga aql-donish yo’li bilan qarab, visol – oshiqning beixtiyor hayotga qarab intilishi natijasidir”, degan javobni beradi. O’n to’rtinchi hikmatda inson tabiatidagi o’z yashab turgan joyiga ko’nikish xususiyati haqida so’z

boradi. Hikmatlardagi savollarning aksariyati aqli donish, ya'ni mantiq bilan yuz bergan savol-javoblardir. Shuning uchun ham Navoiy ushbu dostonida Arastuni ulug' mantiq ustozisi sifatida tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арасту. Ахлоқи кабир. Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
2. Абдурахмон Жомий. Рисолии аруз. Сўзбоши ўринда. Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова. Тошкент: TAMADDUN, 2014. – Б.5.
3. Абдурахмон Жомий. Искандар хирадномаси. Форсийдан Беруний мукофоти лауреати Шоислом Шомухамедов таржимаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978.
4. Алишер Навоий. Садди Искандарий. / МАТ. Тошкент: Фан, 2000. Т.11. Б. 403.
5. Алишер Навоий. Тарихий анбиё ва ҳукамо. МАТ. Т.16. Б. 138.